

HARBIY PSIXOLOG FAOLIYATIDA IJTIMOIIY INTELEKTNING MOHIYATI VA MAZMUNI

Munajatxon Sodiqovna Valiyeva
Toshkent davlat agrar universiteti katta o'qituvchisi
O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada harbiy psixologning kasbiy faoliyatida ijtimoiy intellektning tutgan o'rni tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy intellekt, qobiliyat, mutaxassis, ijtimoiy vaziyat.

Introduction

KIRISH

Harbiy psixologiya zamonaviy harbiy tizimda shaxsning psixologik holatini o'rganish, boshqarish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy xizmat sharoitida shaxs jismoniy, ruhiy va axloqiy bosim ostida faoliyat yuritadi. Bu jarayonda harbiy psixolog nafaqat stressni kamaytirish, balki jamoa ichidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish, yetakchilik va bo'ysinuv me'yorlarini to'g'ri yo'naltirish, nizolarni bartaraf etish va harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Ushbu vazifalar samarali bo'lishi uchun mutaxassisning ijtimoiy intellekti yuqori bo'lishi lozim. Chunki ijtimoiy intellekt insonlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tushunish, baholash va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Harbiy muhitning o'ziga xos qat'iyati, intizomi va tezkor qaror qabul qilish zaruriyati ushbu intellektning ahamiyatini yanada kuchaytiradi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasida Intellekt (lot. intellects — bilish, tushunish, idrok qilish) — insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati[3] degan ta'rif berilgan.

“Intellekt” - bu insonning bilim va tajribani o'zlashtirish va ishlatishga tayyorligini, muammoli vaziyatlarda oqilona xulq-atvorini belgilaydigan fikrlash qobiliyatidir” degan ta'rif G.V.Osipov tomonidan tahrir qilingan sotsiologik ensiklopedik lug'atda berilgan[4]. Yurtimiz olimlaridan O.U.Avlayevning fikricha[1], ijtimoiy intellekt – ko'p o'lchamli, murakkab struktura bo'lib, quyidagi jihatlarga ega:

1. Kommunikativ-shaxsiy salohiyat – muloqotni yengillashtiradigan yoki qiyinlashtiradigan majmuasi bo'lib, uning asosida psixologik kontaktlilik va kommunikativ moslik singari integral kommunikativ xususiyatlar yotadi, bu – ijtimoiy intellektning asosiy o'zagi.
2. O'z-o'zini anglash xarakteristikasi – o'zini hurmat qilish hissi, komplekslardan, xurofotlardan, bostirilgan impulslardan holi bo'lish, yangi g'oyalarga ochiqlik.

3. Ijtimoiy persepsiya, ijtimoiy tafakkur, ijtimoiy xayol, ijtimoiy tasavvur, ijtimoiy hodisalarni tushunish va modellashtirish, insonlarni va ularni harakatga keltiruvchi sabablarni tushunish qobiliyati.

4. Energetik xarakteristikalar: ruhiy va jismoniy chidamlilik, faollik, sezilarsiz darajada kuchdan qolish.

B.Sh.Ramazanovich va S.D.Abdurazzoqovnalarning[2] tadqiqotlarida yuqori ijtimoiy intellekt faollik, nekinlik, moslashuvchanlik, shaxslararo aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlashning rivojlangan qobiliyati kabi xarakter xususiyatlari bilan birlashtirilganligini, shu bilan birga, bunday subyektlar aniq individualistik pozitsiya bilan tavsiflanishi, bu o'zini o'zi boshqarish va me'yoriy ko'rsatmalarga yo'naltirilganlik bilan qoplanishini aniqlashdi. Yana bir guruh olimlar tadqiqotlari orqali ijtimoiy intellekt hamda o'z-o'zini hurmat qilish va madaniyatlararo muloqot sezgirligi o'rtasida uzviy bog'liqlikni aniqlashdi [7]. R.Bar-On tadqiqotlariga asoslanib, ijtimoiy intellekt – bu nafaqat boshqa insonlarning xatti harakatlarini tushunish balki, o'z xatti - harakatlarini ham tushuna olish, vaziyatga qarab ish tuta bilish qobiliyatidir degan fikrni bildirgan[6]. Ijtimoiy intellekt - ijtimoiy guruhning, butun jamiyatning sifatidir [5].

Harbiy psixolog nafaqat tinch davrda, balki, harbiy harakatlar davrida ham harbiy xizmatchilar va harbiy jamoaning ruhiy salomatligi bilan shug'ullanadi. Harbiy psixolog kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun uning ijtimoiy intellekti yuqori darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Yaxshi rivojlangan ijtimoiy intellekt mutaxassisga bo'linma ichidagi ijtimoiy normalar, qadriyatlar va o'zaro munosabatlar, harbiy xizmatchilarning xulq-atvori va psixologik farovonligiga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish imkonini beradi. Bu stress va nizolarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki harbiy psixologlarning barchasida ijtimoiy intellekt bir xil darajada shakllangan bo'lmaydi. Bunga quyidagi omillar ta'sir qiladi: Shaxsning individual psixologik xususiyatlari; psixologik tayyorgarlik sifati; harbiy muhitning keskinligi; muloqot madaniyati va empatik qobiliyatning pastligi; professional amaliy tajribaning yetishmasligi. Agar harbiy psixologning ijtimoiy intellekti yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa: harbiy jamoa ichida nizolar kuchayishi, stress va agressiv kayfiyat ortishi; buyruqlarning psixologik ta'siri pasayishi; shaxsiy muammolar tashxisining qiyinlashuvi kabi oqibatlar yuzaga keladi.

Yaxshi rivojlangan ijtimoiy intellekt mutaxassisga turli ijtimoiy vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning his-tuyg'ulari; niyatlari va xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishga; chaqiriluvchilar va nomzodlarning intellektual, shaxsiy va motivatsion xususiyatlarini to'g'ri baholashga; muloqot vaziyatiga qarab, individual konsultatsiya yoki guruh bilan ishlashda to'g'ri harakat qilish imkonini beradi. Yuqori ijtimoiy intellekt harbiy psixologga og'zaki bo'lmagan signallarni tushunishga, mijozning hissiy holatlarini o'qishga va har bir harbiy xizmatchiga individual yondashuv topishga yordam beradi. Harbiy psixologning ishi ekstremal sharoitlarda askarlarning ruhiy holatini baholashni o'z ham ichiga oladi. Ijtimoiy intellekt ularga nafaqat standart usullarni qo'llash, balki yashirin niyatlarni, qo'rquvlarni va muammolarni intuitiv ravishda anglashga imkon beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, harbiy qism psixologining ijtimoiy intellekti mutaxassisning faoliyat shartlariga kiritilgan qobiliyati sifatida rivojlanadi. Harbiylik kasbi eng

sharaflı, shu bilan birga ekstremal vaziyatlarga ko'p duch keladigan kasblardan biridir. Bunday vaziyatlarda hamkasblariga psixologik konsultatsiya, psixologik tashxis, psixologik maslahat, psixologik korreksiya o'tkazishi lozim bo'lgan harbiy psixologlar o'z faoliyatini qoniqarli amalga oshira olishi barobarida, o'zining psixologik salomatligini asray olishi uchun ham, harbiy psixologning ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasi yuqori bo'lishi lozim. Demak, milliy harbiy psixologning ijtimoiy intellektining rivojlanish darajasini aniqlash, zarurat bo'lganda ularning ijtimoiy intellektini rivojlantirish uchun zaruriy choralarni ko'rish bugungi kun olimlarining dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авлаев Ориф Умирович. Социал интеллект. Монография. – Т.: “Fan ziyosi” nashriyoti, 2024. 160 bet.
2. Б.Ш.Рамазанович, С.Д.Абдурозиковна Социальный интеллект как необходимое качество педагога. История российской психологии в лицах: Дайджест-2016-№ 6 • ISSN 2415-7953, 353-359стр
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси ва ҳарфи «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти Тошкент 492- бет
4. Осипов Г.В. Социологический энциклопедический словарь. // - М.: Просвещение, 1993.-с.227.
5. Ростовых Дарья Андреевна Социальный интеллект как фактор Общественного развития в условиях информатизации Специальность 09.00.11 - социальная философия: Автореф. дис. . канд. филос. наук.Москва-2007
6. Bar-On R. Emotional intelligence and self-actualization. Emotional intelligence in everyday life: A scientific inquiry / R.Bar-On ; eds. J.Ciarrochi, J.Forgas, J.D.Mayer. — New York : Psychology Press, 2001. – P. 82 – 97.
7. Kaess, W. A., & Witryol, S. L. (1955). Memory for names and faces: a characteristic of social intelligence? Journal of Applied Psychology, 39(6), 457–462. <https://doi.org/10.1037/h0042019>.